

Xudayberganova Dilafruz Usmonovna

NDPI akademik litsey o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARDA FOLKLORGA OID BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ MAQOLLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq maqollarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda yuksak ma’naviy didni shakllantirish, xususan, jamiyatda uchraydigan illatlarga salbiy munosabatni maqollar asosida ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, mavzuviy bog‘liqlik, nazariy ma’lumot, amaliy ko‘nikma, ma’naviyat, badiiy did, adabiy ta’lim, xalq og‘zaki ijodi.

Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil.

Vatan, mehnat, ilm-hunar, sevgi va muhabbat do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan.

Turkiy xalqlar maqollaridan namunalar dastlab Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Unda maqollarning bir qanchasi hozir xam o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlataladi. Masalan: Qoshg‘ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabi.

Maqol ba’zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi.¹

Maqollarni o‘qitishda bir mavzu doirasidagi maqollarni qamrab olish yaxshi samara beradi, o‘quvchi tanlangan maqolning mazmun mohiyatini to‘la to‘kis tushunib oladi va almashtirib qo‘llayveradi. Masalan, “Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” maqolini olaylik.

Maqol qatnashadigan sinonimik qatorda, avvalo, birovdan biror manfaat ko‘rmoq uchun uni ham biror nima bilan manfaatdor qilish, kirimga erishmoq uchun chiqimdan qochmaslik kerak bo‘ladi. Aks holda maqsadga erishish amri mahol, degan ma’no anglashiladi.

2-ma’no: “Sizdan ugina, bizdan bugina” qabilida ish ko‘rvuchi, arzimagan xizmati uchun ham birovdan bir nima tama qiluvchi poraxo‘r, tamagir kishilarga nisbatan kinoya tarzida ishlataladi.

3-ma’no: Tamagir odamning o‘zi ham xizmati evaziga bir nima berilishi lozimligini bildirmoq niyatida mazkur maqolni aytib, maqsadini ochiqdan-ochiq tushuntirmaqchi bo‘ladi:

¹ Шомакұсов III., Шорахмедов III., Маңнолар махзани, Т., 2001. 45-б.

Xalq orasida “Mushuk bekorga oftobga chiqmaydi”, degan gap bor. Ko‘pchilik bu dunyoda o‘z manfaatini o‘ylamay bir ish qilmaydi. Men unday takliflarga qarasam, bu yerda o‘tirmasdim (O.Muxtor. “Egilgan bosh”, 109-bet). – Noibga ham biron narsa... — Albatta, “**moylanmagan arava yurmaydi**”, deganlaridek, ikki yuz tanga bilan u kishining tomog‘ini ham moyladim (S.Ayniy. “Sudxo‘rning o‘limi”, 82-bet). Mazkur misollar ham maqolning hayotiy ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, pora haqidagi maqollarning ketma-ketligidan foydalanish o‘quvchida mazkur illat haqida aniq tasavvur hosil bo‘lishiga olib keladi. Uning maqol ekanligini tasdiqlovchi nazariy ma’lumot esa muloqot jarayonida uslubiy g‘alizliklarning oldini oladi. So‘zlovchi o‘zi ifodalayotgan birlikning, foydalanayotgan janrning farqiga borishi uning savodxonlik darajasini namoyon etib turadi.

Adabiyot darslarida xalq maqollaridan foydalanishning amaliy ahamiyati katta. O‘quvchi ma’naviy etuk shaxs sifatida rivojlanishi uchun bobolardan qolgan, davr sinovidan o‘tgan maqollar ma’nosini teran anglashi va ularni o‘z nutqida samarali qo‘llay bilishi ham lozim: 1. Pora do‘zax eshigini ochar. 2. Pora kanda bo‘lmasa, parokanda bo‘lasan. 3. Qoziga borsang, qozi pulini tugib bor. 4. Qoziga bora berma, pora ber.

Mazkur maqollar bir mavzu doirasida o‘rganilsa, pora olish va pora berish og‘ir gunoh, shuningdek, katta jinoyat ekanligini o‘quvchi anglab etadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi mazkur mavzudagi maqollarni tahlil qilar ekan, jinoyat kodeksidan ham mavzuga tegishli moddalardan namuna keltirib, qonunchilikning naqadar insonparvar va xalqchil ekanligini ham tushuntirib ketishi, jinoyat, poraxo‘rlik tushunchalariga izohli lug‘atlardan iqtiboslar keltirilsa, darsning samaradorligi yuqori bo‘ladi. Qolaversa, o‘qituvchi dars mobaynida o‘quvchilarda ayrim xalq maqollari davr o‘tishi bilan eskirishi, o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkinligini ham aytib o‘tishi lozim. Masalan, “Quruq qoshiq og‘iz yirtar”. Bu maqol poraxo‘rlikka undaydi. Yoki “O‘g‘iri bo‘l, insofi bilan bo‘l”. Adabiyotni, ayniqsa, qadimiy tarixga ega bo‘lgan folklor adabiyotini o‘qitishda uning bugungi hayot bilan muvofiqligiga alohida e’tibor berish kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. d.ri ... diss. – T., 1996. –B.306.
2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. d.ri ... diss. – T., 1996. – B.252.
3. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2012. –B.144.
4. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1992. –B.333.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma’nolar maxzani, T., 2001. 45-b.